



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT STATISTIKA QO‘MITASI**



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI AHOLISINING UMUMIY DAROMADLARI


**2022- YILNING YANVAR-SENTABR
OYLARI BO‘YICHA
DASTLABKI MA‘LUMOTLAR**



Aholining umumiy daromadlari

(2022- yilning yanvar-sentabr oylari bo'yicha dastlabki ma'lumotlar)

Aholi umumiy daromadlarini hisoblash – Milliy hisoblar tizimining xalqaro statistika standartlariga, Xalqaro mehnat tashkilotining tavsiyalariga, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga asoslangan Davlat statistika qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan metodik qo'llanma asosida amalga oshiriladi.



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2022- yilning yanvar-sentabr holatiga ko'ra, aholining umumiy daromadlari **454,9** trln. so'mni tashkil etdi.

Aholi daromadlari bo'yicha real o'sish sur'atlarini hisoblashda narx omillari ta'sirini chiqarib tashlash maqsadida, inflyatsiya ko'rsatkichlarining asosiy turlaridan biri – iste'mol narxlar indeksidan (INI) foydalaniladi. Iste'mol narxlarining o'zgarishi sababli o'tgan yilning mos davriga nisbatan aholi umumiy daromadlarining real o'sish sur'ati **110,7** % ni tashkil etdi.



O'zbekiston Respublikasi aholisining umumiy daromadlari

Aholi umumiy daromadlarini hisoblashda Davlat statistika hisoboti ma'lumotlaridan, shuningdek, muntazam ravishda statistika organlari tomonidan o'tkazib boriladigan yakka tartibdagi tadbirkorlar va dehqon xo'jaliklarining iqtisodiy faoliyati bo'yicha hamda uy xo'jaliklari tanlanma kuzatuv ma'lumotlaridan, bundan tashqari Moliya vazirligi, Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Markaziy Bank, Xalq Banki, Davlat soliq qo'mitasi tomonidan aholiga hisoblangan daromadlar, ijtimoiy to'lovlar va soliq to'lovlari to'g'risidagi umumlashgan ma'lumotlardan foydalaniladi.

Aholi jon boshiga umumiy daromadlari

(2022- yilning yanvar-sentabr oylari bo'yicha dastlabki ma'lumotlar)

12,8
mln. so'm

Aholi jon boshiga umumiy daromadlari



120,5%

Aholi jon boshiga umumiy daromadlarining nominal o'sish sur'ati




108,4%

Aholi jon boshiga umumiy daromadlarining real o'sish sur'ati




2022- yilning yanvar-sentabr oylarida (to'qqiz oy davomida), aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmida Toshkent shahrida (26905,4 ming so'm) hamda Navoiy (20148,6 ming so'm), Buxoro (15511,7 ming so'm), Xorazm (14193,8 ming so'm) va Toshkent (13284,3 ming so'm) viloyatlarida o'rtacha respublika darajasidan yuqori ko'rsatkichlar qayd etilganligi kuzatildi.

O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi, 2022- yilning yanvar-sentabr oylari bo'yicha (to'qqiz oy davomida), ming so'm




2022- yilning yanvar-sentabr oylarida (to'qqiz oy davomida), aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmining eng quyi ko'rsatkichlari Qoraqalpog'iston Respublikasida (9347,8 ming so'm), Farg'ona (9720,7 ming so'm), Namangan (10087,7 ming so'm), Jizzax (10575,1 ming so'm) viloyatlarida qayd etildi.

O‘zbekiston Respublikasida aholi jon boshiga umumiy daromadlarning real o‘shish sur‘atlari



2022- yilning yanvar-sentabr holatiga hamda 2021- yilning yanvar-sentabr holatiga ko‘ra aholi jon boshiga umumiy daromadlarning real o‘shishi 108,4 % ni tashkil etdi.

Hududlar bo‘yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlarning real o‘shish sur‘atlari, 2022- yilning yanvar-sentabr holatiga ko‘ra



Aholi jon boshiga umumiy daromadlarning eng yuqori real o‘shishi Toshkent sh. (13,8 %), Xorazm (12,8 %) va Surxondaryo (12,0 %) viloyatlarida kuzatildi. Shu bilan birga Toshkent (0,6 %), Jizzax (1,3 %), Navoiy (3,9 %), Sirdaryo (5,1 %) viloyatlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi (6,1 %), hamda Samarqand (6,4 %), Buxoro (7,4 %), Andijon (8,2 %) viloyatlari aholi jon boshiga umumiy daromadlarning real o‘shishi o‘rtacha respublika darajasidan past ko‘rsatkichni tashkil etdi.

Aholining umumiy daromadlari tarkibi

(2022- yilning yanvar-sentabr oylari bo‘yicha)

	2021- y.	2022- y.
Umumiy daromadlar – jami	100,0%	100,0%
Mehnat faoliyatidan olingan daromadlar	64,8%	61,2%
Shaxsiy iste‘mol uchun o‘zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlar	6,7%	6,2%
Mol-mulkdan olingan daromadlar	2,2%	2,4%
Transfertlardan olingan daromadlar	26,3%	30,2%


Aholining umumiy daromadlari hajmini sezilarli darajada o‘sishi asosan umumiy daromadlar tarkibida 61,2% ulushga ega bo‘lgan mehnat faoliyatidan olingan daromadlar (yollanma ishchilarning daromadlari va mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlar) va 30,2 % ni tashkil etuvchi transfertlardan olingan daromadlarning sezilarli o‘zgarishi hisobiga yuzaga kelgan.



Ma‘lumot uchun: bu yerda va keyingi o‘rinlarda shaxsiy iste‘mol uchun o‘zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlar bo‘yicha ma‘lumotlar qayta hisoblashlarni inobatga olgan holda keltirilgan. Mazkur qayta hisoblashlar “MHT – 2008” xalqaro standarti asosida o‘z uyida yashash bo‘yicha xizmatlar (shartli uy-joy rentasi)ni baholashning yangi metodologiyasini joriy etilishi bilan bog‘liqdir.

O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha aholi umumiy daromadlari tarkibi

(2022- yilning yanvar-sentabr oylarida, hududiy aholi umumiy daromadlariga nisbatan)



■ mehnat faoliyatidan olingan daromadlar

■ shaxsiy iste'mol uchun o'zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlar va mol-mulkdan olingan daromadlar

■ transfertlardan olingan daromadlar


Hududlar bo'yicha aholi umumiy daromadlari tarkibida mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning (yollanib ishlovchilarning ish haqi va mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar) eng yuqori ulushi Navoiy (79,2 %) viloyatida kuzatildi. Aksincha, Samarqand, Xorazm viloyatlarida, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Surxondaryo, Namangan, Qashqadaryo, Farg'ona, Andijon viloyatlarida hamda Toshkent shahrida o'rtacha respublika darajasidan past ko'rsatkichni tashkil etdi.

Mehnat faoliyatidan olingan daromadlar (2022- yilning yanvar-sentabr oylari bo‘yicha)




Aholining umumiy daromadlari tarkibida mehnat faoliyatidan olingan daromadlar (yollanma ishchilarning va mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlar) sezilarli ulushni tashkil etdi.

Mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning umumiy daromadlar tarkibidagi ulushi



2022- yilning yanvar-sentabr oylari ma‘lumotlariga ko‘ra, mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning umumiy daromadlar tarkibidagi ulushi 61,2 % ni tashkil etdi.

Mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning nominal o‘shish sur‘ati



Mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning nominal o‘shish sur‘ati 2021- yilning mos davriga nisbatan 116,2 % ni tashkil etdi hamda aholi umumiy daromadlari nominal hajmining 10,5 % ga o‘shishini ta‘minladi.



O'zbekiston Respublikasi aholisining umumiy daromadlari

Yollanma ishchilar daromadlarining o'sish sur'ati




Joriy davrda yollanma ishchilar daromadlarining o'sish sur'ati 126,2 % ni tashkil etib, aholi umumiy daromadlari nominal hajmining 6,9 % ga o'sishini ta'minladi.

Aholining umumiy daromadlari tarkibida yollanma ishchilarning daromadlari ulushi




2021- yil
yanvar-sentabr



2022- yil
yanvar-sentabr

Hududlar bo'yicha yollanma ishchilar daromadlarining o'sish sur'ati (2022- yilning yanvar-sentabr holatiga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan)



Yollanma ishchilar daromadlarining eng yuqori nominal o'sish sur'ati Toshkent sh. (135,6 %), Xorazm (129,6 %) va Sirdaryo (128,7 %) viloyatlarida qayd etildi.

Mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlarning o‘shish sur‘ati




Joriy davrda mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlarning o‘shish sur‘ati 109,2 % ni tashkil etib, aholi umumiy daromadlari nominal hajmining 3,5 % ga o‘shishini ta‘minladi.

Aholining umumiy daromadlari tarkibida mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlar ulushi




2021- yil yanvar-sentabr



2022- yil yanvar-sentabr


2022- yilning yanvar-sentabr oylarida aholining umumiy daromadlari tarkibida mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlari 34,0 % ni tashkil qildi.

Hududlar bo‘yicha umumiy daromadlar tarkibida, mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlar ulushi (2022- yilning yanvar-sentabr oylari bo‘yicha)




Hududlarda mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlarning eng yuqori ulushi Jizzax (50,7 %), Buxoro (43,0 %) va Toshkent (41,8 %) viloyatlarida kuzatildi. Aksincha Toshkent shahrida va Qoraqalpog‘iston Respublikasida bu ko‘rsatkich o‘rtacha respublika darajasidan past bo‘lgan.

Mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlar 1 % ga o‘sganda aholining umumiy daromadlari hajmi o‘shishiga ta’siri




2022- yil yanvar-sentabr oylarida mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlarning 1 % ga o‘shishi umumiy daromadlar hajmining 0,34 % ga o‘shishiga olib keldi.

Jami mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlarda hududlarning ulushi, 2022- yilning yanvar-sentabr oylari bo‘yicha



Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning asosiy ulushi Toshkent (10,6 %), Samarqand (10,5 %) va Andijon (9,4 %) viloyatlari hissasiga to'g'ri keldi. Kamroq ulushga ega bo'lgan hududlar Sirdaryo viloyati (2,3 %), Qoraqalpog'iston Respublikasi (3,3 %) hamda Navoiy (4,9 %) va Jizzax (5,1 %) viloyatlari hisoblanadi.

Mol-mulkdan olingan daromadlarning aholining umumiy daromadlari tarkibidagi ulushi



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2022-yilning yanvar-sentabr holatiga ko'ra, mol-mulkdan olingan daromadlar 11,0 trln. so'mni tashkil etdi.


Aholining umumiy daromadlari tarkibida mol-mulkdan olingan daromadlar ulushi 2,4 % ni tashkil etdi.

Joriy davrda mol-mulkdan olingan daromadlar aholi umumiy daromadlari hajmining 0,8 % ga o'sishini ta'minladi.


Mol-mulkdan olingan daromadlar tarkibida hududlarning ulushi 2022- yilning yanvar-sentabr oylari bo'yicha

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida mol-mulkdan olingan daromadlar hajmining uchdan ikki qismi Toshkent shahri hissasiga to'g'ri kelib, 64,6 % ni tashkil etdi. Toshkent (7,5 %) va Navoiy (4,3 %) viloyatlari keyingi yuqori ulushga ega bo'lgan hududlar hisoblanadi.

Mol-mulkdan olingan daromadlar tarkibida hududlarning ulushi



Mol-mulkdan olingan daromadlarning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati




2022- yilning yanvar-sentabr oylari dastlabki ma‘lumotlariga ko‘ra, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan mol-mulkdan olingan daromadlarning nominal o‘shish sur‘ati 136,0 % ni tashkil etdi. Hududlar bo‘yicha eng yuqori o‘shish sur‘ati Toshkent shahrida (141,9 %) va Navoiy viloyatida (141,0 %) qayd etildi.


Transfertlardan olingan daromadlar

2022- yilning yanvar-sentabr oylari bo‘yicha

Aholi umumiy daromadlari hajmida transfertlarning ulushi




Transfertlardan olingan daromadlar tarkibi




Ushbu davrda aholining umumiy daromadlari hajmida transfertlarning ulushi 30,2 % ni tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-sentabr oylari dastlabki ma’lumotlariga ko‘ra, transfertlardan olingan daromadlarning 35,9 % ini ijtimoiy transfertlardan olingan daromadlar tashkil qilgan bo‘lsa, 64,1 % ini boshqa joriy transfertlardan olingan daromadlar tashkil qildi.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ijtimoiy transfertlar tarkibi



O‘shish sur‘ati




Ijtimoiy transfertlar tarkibida pensiyalar eng ko‘p ulushni (71,8 %) tashkil qilgan bo‘lsa, nafaqalar 26,5 % ni, stipendiyalar 1,7 % ni tashkil etdi.

2021- yilning mos davri ma’lumotlari bilan taqqoslaganda pensiyalarning o‘shish sur‘ati 123,8 % ni, nafaqalarning o‘shish sur‘ati 181,4 % ni va stipendiyalarning o‘shish sur‘ati 145,2 % ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida, jami 13,1 trln. so‘m miqdorida nafaqa va moddiy yordamlar ajratildi. Shundan 37,0 % i budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi hisobidan moliyalashtiriladigan davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha nafaqalar va 63,0 % i respublika va mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilgan.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo‘yicha ijtimoiy nafaqalarning shakllanish manbalari



■ Pensiya jamg‘armasi hisobidan

■ Respublika va mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan

Boshqa joriy transfertlar, 2022- yilning yanvar-sentabr holatiga

Boshqa joriy transfertlar hajmi chet eldan yuborilgan pul o‘tkazmalari tarkibidan jismoniy shaxslarning ishlab chiqarish (biznes) faoliyatidan olinadigan daromadlari bilan bog‘liq o‘tkazmalarini (Markaziy bank va uy xo‘jaliklari tanlanma kuzatuv ma‘lumotlari asosida) chiqarib tashlangan holda keltirilgan.

2022- yilning yanvar-sentabr oylari bo‘yicha boshqa joriy transfertlar tarkibiga kiruvchi respublika tashqarisidan kelib tushgan pul o‘tkazmalari hajmining nominal o‘sish sur‘ati 145,2 % ni tashkil etdi. Aholining umumiy daromadlari tarkibidagi ulushi o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 3,0 % punktga ko‘tarildi. Ushbu daromadlarning o‘zgarishi aholi umumiy daromadlari nominal qiymatining 7,4 % ga o‘sishini ta‘minlab berdi.

Hududlar bo‘yicha aholining umumiy daromadlari tarkibida respublika tashqarisidan kelib tushgan pul o‘tkazmalari hajmining ulushi (2022- yilning yanvar-sentabr holatiga)

1 Xorazm – 31,4%

2 Samarqand – 29,7%

3 Surxondaryo – 25,8%

4 Andijon – 25,2%

5 Buxoro – 23,2%

6 Qashqadaryo – 22,7%

7 Namangan – 22,2%

8 Farg‘ona – 21,4%

9 Qoraqalpog‘iston
Respublikasi – 21,1%

10 Sirdaryo – 12,4%

11 Toshkent sh. – 12,0%

12 Jizzax – 8,9%

13 Toshkent – 6,3%

14 Navoiy – 4,9%

Aholining umumiy daromadlari tarkibida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlar, 2022- yilning yanvar-sentabr holatiga

2022- yilning yanvar-sentabr oylari dastlabki ma’lumotlariga ko‘ra, aholining umumiy daromadlari hajmida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlarning ulushi 55,9 % ni tashkil etdi.

Hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlarning ulushi



Kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlarning hududiy aholi umumiy daromadlaridagi ulushi turlicha, eng yuqori ulush Jizzax viloyatida (65,9 %) kuzatildi. Eng kam ulush esa Toshkent shahrida (45,6 %), Navoiy (48,4 %) viloyatida va Qoraqalpog‘iston Respublikasida (48,9 %) qayd etildi.

Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

Aholining umumiy daromadlari doimiy yoki takrorlanuvchi xususiyatga ega bo‘lgan, yillik yoki undan kam vaqt oralig‘idagi davrda, uy xo‘jaligi yoki uning alohida a‘zolariga tushadigan pul va natura shaklidagi tushumlardan tashkil topadi.

Aholi birlamchi daromadlari ishlab chiqarishdan olingan daromadlar va mol-mulkdan olingan daromadlardan tashkil topadi.

Ishlab chiqarishdan olingan daromadlarga mehnat faoliyatidan olingan daromad va shaxsiy iste‘mol uchun ishlab chiqarilgan shaxsiy xizmatlardan olingan daromadlar kiradi.

Mehnat faoliyatidan olingan daromad yollanma ishchilarning va mustaqil ravishda band bo‘lgan aholining daromadidan tarkib topadi.

Mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromad – mustaqil ravishda tashkillashtirilgan va uy xo‘jaligi a‘zolari jalb qilingan mehnat jarayoni natijasida olingan daromadlar.

Shaxsiy iste‘mol uchun o‘zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlarga bozor uchun mo‘ljallanmagan va uy-joy egalari tomonidan foydalanilayotgan turar-joy xizmatlarining shartli ravishda hisoblangan qiymati kiradi.

Mol-mulkdan olingan daromadlar (mulkiy daromadlar) deganda mulkiy egalik qilish huquqi bo‘lgan moliyaviy va nomoliyaviy aktivlarni boshqa shaxslarga foydalanish uchun berishdan uy xo‘jaliklariga tushgan tushumlar tushuniladi.

Transfertlar – uy xo‘jaliklariga boshqa uy xo‘jaliklaridan, davlat tomonidan, yuridik shaxslardan, chet eldan kelib tushadigan hamda kelgusida qaytarilishi shart bo‘lmagan tovarlar, xizmatlar va aktivlardir.